

## Tasviriy san'at asarlarini tahlil qilish orqali talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirish

Jamoliddin Yuldoshevich Raxmatov  
rakhmatovjaloliddin@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
Xulkar Zoxid qizi Xudoyberdiyeva  
xulkarxudoyberdiyeva58@gmail.com  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tasviriy san'at asarlarini tahlil qilish orqali talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirish oid bo'lgan ma'lumotlar va asarlarning badiiy tahlili yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** tasviriy san'at, badiiy tafakkur, impressionism, rangtasvir, manzara, kompozitsiya

## Developing students' artistic thinking through the analysis of fine artworks

Jamoliddin Yuldoshevich Rahmatov  
rakhmatovjaloliddin@gmail.com

Sharof Rashidov Samarkand State University  
Khulkar Zokhid qizi Khudoyberdiyeva  
xulkarxudoyberdiyeva58@gmail.com  
Shakhrisabz State Pedagogical Institute

**Abstract:** This article presents information on developing students' artistic thinking through the analysis of fine artworks and explores the artistic analysis of these works.

**Keywords:** fine art, artistic thinking, impressionism, painting, landscape, composition

Har bir ijtimoiy jamiyat san'at oldiga yangi zamonaviy vazifalarni qo'yadi. Rassom o'tmishdagi tasviriy san'at ustalari merosini va tajribalarini o'rganib tomoshabinga chuqur ta'sir etuvchi san'at asarlarini yaratadi.

Tasviriy san'at turlarining har biri ijodkor tanlagan voqelikni, mavzuni o'ziga xos vositalarda, badiiy tilda tasvirlaydi. Tasviriy san'at asarlarida rassomning his tuyg'ulari, estetik go'zallik, tasavvuri jozibali tarannum etiladi. Har bir san'at asarini

yaratishda mazmun va g'oya asosiy yechim hisoblanadi. Fransuz faylasufi Didro, bundan qariyb 300 yillar avval, - "Qaysi bir mamlakatda rasm chizishni o'qish-yozish kabi bilsalar, bu mamlakat barcha sohalarda har qanday mamlakatni quvib yetadi va ortda qoldiradi"<sup>1</sup> degan edi.

Tasviriy san'at o'quv fanining maqsadi barkamol, komil insonni, ayniqsa, badiiy madaniyatini shakllantirish hisoblanadi. Shuningdek, san'at asarlarini o'rganish va o'rgatish tasviriy san'at fanining bosh vazifalaridan biri hisoblanadi. Tasviriy san'at o'quv predmeti rassomlar tomonidan yaratilgan san'at asarlarini ko'rish va uni tushunish, tahlil qilishni talabalariga o'rgatadi. Rassom tomonidan yaratilgan har bir asarda mavzu, sujet, g'oya, badiiy uslub, obrazlar, personajlar bo'lib, asardagi voqeaning davri, voqeasi o'z ifodasini topgan bo'ladi. San'at asarlarini ko'rish va uni tushunish, tahlil qilishni talabalarga o'rgatish san'atdagi oqim va yo'nalishlar mavzusini o'tish orqali amalga oshiriladi. Bu shubhasiz tasviriy san'at darslarida talabalarni badiiy tafakkurini rivojlantirish uchun obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Talabalarga san'at asarlarini tushuntirish uni idrok etishga o'rgatish va san'at asarlarini tahlil qilish davrida o'qituvchi asosiy e'tiborni asar qanday oqim va yo'nalishda yaratilganligi, asarning g'oyasi, rassomning badiiy uslubiga qaratadi.



1-rasm. Klod Mone  
"Taassurot. Quyoshning chiqishi"  
1872 y. Marmottan-Mone muzeyi.  
Rarij



2-rasm. Edgar Dega  
"Moviy raqqosalar"  
1897 y. Pushkin muzeyi  
Moskva

Masalan: impressionism oqimini olaylik. Impressionizm oqimi (fransuzcha "impressionnesme" - taassurot) - XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida tasviriy san'atda paydo bo'lgan oqimlardan biri hisoblanadi. Impressionizm iborasining tasviriy san'atga kirib kelishi mashxur fransuz rassomi Klod Mone nomi bilan bog'liqdir. Rassom Klod Mone tomonidan 1872 yilda yaratilgan "Taassurot. Quyoshning chiqishi" nomli asari o'sha davrda yangi oqimning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. (1-rasm). Shuningdek rassomlar Edgar Dega, Ogyust Renuar, Kamil Pissarro, Alfred Sisley, Frederik Bazil, Berta Morizolar impressionizm oqimida

<sup>1</sup>N.Rostovsev. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. M.,1980-y., 12-bet.

o‘zlarining bir qancha taniqli asarlarini yaratganlar. Ular bevosita tabiatning ochiq havosida kartinalar ishlab, tabiat va u bilan organik bog‘liq bo‘lgan insonlar qiyofasidagi o‘zgarishlarni bo‘yoqlar vositasida mohirona tasvirlaganlar. Jumladan fransuz rassomi va haykaltaroshi, impressionism oqimi namoyandasi Edgar Dega tomonidan 1897-yilda yaratilgan “Moviy raqqosalar” nomli asar hozirgi paytda Moskvadagi Pushkin muzeyida saqlanadi.

Tasviriy san‘atning manzara janri impressionist rassomlar ijodida oddiy tabiat ko‘rinishining aksidan inson qalbi to‘lqinlarini ifoda etish vositasiga aylangan. Ochiq havoning badiiy - estetik ko‘rkidan hayratlanish tobora kuchayib borgan va turli mavsumiy tabiatning makondagi ko‘rinishlari soniyasi asosiy badiiy obraz sanalgan. Impressionist rassomlar tarixan shakllangan yoki zamonaviy tasvir maktabi va yo‘nalishlariga nisbatan badiiy obraz olamiga juda ko‘p yangiliklarni olib kirganlar.

Impressionism oqimidagi rassomlar ijodi o‘zbek rangtasvir san‘ati rivojida ham o‘z ifodasini topgan. O‘zbekistonlik rassomlar L.Bure, O.Tatevosyan, P.Benkov, Z.Kovalevskaya, A.Mirsoatov va boshqa rassomlar ijodida shu ta’sirni sezishimiz mumkin.

Tasviriy san‘at asarlarini tahlil qilish orqali talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirishda rassom asarida tasvirlangan obyekt, voqea, undagi narsalar, manzara, odamlar va hayvonot dunyosi va asar kompozitsiyasi haqida to‘g‘ri, ilmiy ma’lumotlar berishi lozim.

Masalan: Rassom Abduhakim Karimovning „Ruhshona“ nomli asarida kishini hayratga solarli darajada xayolot mavjud.(3-rasm). Rassom asarida ham ran-barang boy xayolot olami ustunlik qiladi. Asarda san‘at olami xayolot olami bilan o‘zaro bog‘lab boyitilgan. Bu asar badiiy ranglar, timsollar vositasida boyitilgan bo‘lib, insonni ayni paytda go‘zallikni mushohada qilishga, uning mohiyatini anglashga undaydi. Ranglardagi mutanosiblik va to‘lqinlanish, obrazlardagi tiniqlik va to‘liqlikligi xayolot dunyosi orqali yaratilgandir.



3-rasm. Abduhakim Karimov  
“Ruhshona”



4-rasm J. Xoliqov  
“Bobom haqida xotiralar”

Iste’dodli rassom Jahongir Xoliqov “Bobom haqida xotiralar” nomli asarini rangtasvirda yaratgan. (4-rasm). Asarda hovlining eski devoridagi ochiq darchadan

tushayotgan ruhiy nur, zangori cheksiz osmon fonida hovli va bobo qiyofasi xayolot olami orqali tasvirlangan. Keksa daraxtda oq laylak va arg‘imchoqda uchayotgan yosh bola tasviri kishiga bolalik davrlarini eslatadi. Bolalik xotiralari orqali asarda rassomning his-tuyg‘ulari, tasavvuri, estetik go‘zallik jozibali tarannum etilgan. Rassom asarida mazmun va g‘oya asosiy yechim hisoblangan. Xulosa qilib aytganda, tasviriy san‘at asarlarini tahlil qilish talabalarning badiiy tafakkuri, badiiy madaniyatini shakllantiradi va estetik didni tarbiyalaydi. Shuningdek, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ham nazariy va amaliy jihatdan yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. R. Hasanov."Tasviriy san‘at asoslari". G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T. 2009.
2. Oripov B. N.Tasviriy san‘at va uni o‘qitish metodikasi.T. Ilm Ziyo. 2012.
3. G‘. Abduraxmonov. Kompozitsiya asoslari. Nizomiy TDPU. T. 2013.
4. S.Abdirasilov, N.Tolipov, N. Oripova. Rangtasvir. T.O‘zbekiston. 2006.
5. S.Abdirasulov. Tasviriy san‘at atamalari. Nizomiy TDPU. T.2005.